

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARIXIY TAFAKKURNING SHAKLLANISHIDA AXSIKENT ALLOMALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI.

Qambarov Abdujabbor Boxroliyevich

Namangan davlat pedagogika instituti

“Falsafiy va tarixiy fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD

Tel : 998 94 907 27 80

abduzabborkambarov15@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21033670>

Annotatsiya: *Yangi O‘zbekiston yoshlarida tarixiy tafakkurni shakllantirishda Axsikent allomalarimiz tamonidan ayratilgan moddiy va ma’naviy ashyo’lar va o‘tmishda olim-u- fuзалolar etishib chiqqan shu qadar rang –barang va behisobki, bugungi davrda Axsikentlik allomalar qalamiga mansub durdona kitoblar dunyo’gagi mashhur kutibxona va muzeylar fondlarida saqlanganligini va ularni o‘rganish xozirgi kunda dolzarb masala ekanligini ko‘rishimiz mumkin.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy tafakkur, moddiy, milliy tarix, milliy ruh, o‘tmish, hozirgi, kelajak.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОСНОВНЫХ УЧЕНЫХ В ФОРМИРОВАНИИ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.

Аннотация: *Материальный и духовный вклад наших ахсикентских ученых, а также ученых и фузалов, внесших вклад в формирование исторического мышления среди молодежи нового Узбекистана, настолько разнообразен и бесчисленен, что сегодня мы видим, что шедевры, написанные ахсикентскими учеными, хранятся в собраниях известных*

библиотек и музеев по всему миру, и их изучение является сегодня актуальной проблемой.

Ключевые слова: историческое мышление, материальный, национальная история, национальный дух, прошлое, настоящее, будущее.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF AXISKENT SCIENTISTS IN THE FORMATION OF THE HISTORICAL THINKING OF THE YOUTH OF NEW UZBEKISTAN

Annotation: *The material and spiritual contributions made by our Akhsikent scholars and the scholars and fuzals who have contributed. To the formation of historical thinking among the youth of new Uzbekistan are so diverse and innumerable that today we can see that the masterpieces written by Akhsikent scholars are stored in the collections of famous libraries and museums around the world, and their study is a pressing issue today.*

keywords: *historical thinking, material, national history, national spirit, past, present, future.*

Mustaqillikning dastlabki yillarida tarixiy haqiqat, tarixiy tafakkurni tiklashga imkoniyat ochilishi va bunga shart-sharoit tug‘ilishi tufayli xalqimizning kelajakga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda. Bu esa, o‘z o‘rnida, jamiyat taqdiri hamda taraqqiyotiga dahldorlik hissini kuchaytirmoqda, ijtimoiy ta’sirchanlikni oshirdi va shaxsning ma’naviy dunyosini boyitdi. Inson o‘z tarixiy tafakkuriga ega bo‘lmasdan turib, mamlakati, xalqi, millati hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi.

Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”.[1] Tarixchi esa jamiyatda yuz beradigan voqealarning sabablarini shariat qoidalari bilan uyg‘unlashtirilishi shart edi.

Chunki har qanday mantiqiy fikrlash voqealarning sababini aniqlashni taqozo etadi. Musulmon tarixchilari bu murakkab vaziyatda o‘ziga xos yo‘l topdilar. Ular voqealarning kelib chiqish sabablarini bayon etib, bu sabablar ham Allohning irodasi ekanini e’tirof etdilar. Ajdodlarimiz tamonidan ayratilgan moddiy va ma’naviy ashyo’lar va o’tmishda ko‘plab jahongashta hukmdor, olim-u- fuzalolar etishib chiqqan shu qadar rang –barang va behisobki, bugungi davrda axsikentlik allomalar qalamiga mansub durdona kitoblar dunyo’gagi mashhur kutubxona va muzeylar fondlarida saqlanmoqda. Tili va diniy e’tiqodi turli bo‘lishiga qaramay, O‘rta Osiyo` jumladan, Farg`ona xalqlari yo`nma-yo`n, tinch-totuv hayo`t kechirganlar.

“Axsikent- Farg`ona ilmiy muhitida tarbiya topgan mashhur allomalar tarix, adabiyot, tilshunoslik va islomiy ilmlarning ko‘plab sohalarida ijod qilgan ajdodlarimizning hayoti va ilmiy merosini topib o‘rganish muhim vazifalardan biridir. Buning asnosida esa bugungacha ilmiy merosi yahshi o‘rganilmagan o‘nlab, Axsikatiy, Kasonoy, Marginoniy, Farg`oniy, O‘zgandiy, O‘shiy, Andijoniy va boshqa nisbatda ijod qilgan olimlar aniqlandi”[2]. Axsikent o‘zining eng rivojlangan davrida bir nechf buyuk olimlarga beshik bo‘lgan madaniy markazga aylangan edi. Ilm-fanning turli jabhalari: adabiyot, tarix, falsafa, handasa, ilohiyot sohasida yirik allomalar Axsikent bag‘rida yashab, ijod etib, keyinchalik jahon mamlakatlari bo‘ylab o‘z ilm va ziyolarini tarqatishgan. Jumladan, Ahmad al-Axsikatiy, Abul Vafo Axsikatiy, Asiriddin Axsikatiy va juda ko‘plab allomalar ijod qilganlar.

VI asrda faoliyat olib borgan Asiriddin Axsikatiy bilimdon, muarrix, adib, tilshunos va mazmunli ijodi bilan tanilgan shoir, xushsiyrat kishi bo‘lgan. “Uning 1313 yilda Abdulmo‘min Ulfiy kotib tamonidan ko‘chirilgan 8 ming baytdan iborat devoni Londonda “Indiya Ofis”kutubxonasida, ikkitadan qo‘lyozmasi Hindiston, Dushanba va Berlindagi, 11 tasi esa Eron kutubxonasida saqlanmoqda Devon she’rlar, 120 qasida, 220 g‘azal, 80 qit’a, 80 ruboiy, 4 tarki-band va

tajriband, 24 farddan iborat. Shoir qasidalarida mahbubni tavsiflash, fasllarni tasvirlash, o‘z ahvoli rihiyasini bayon etish, pand-u nasihatlar asosiy o‘rinni egallagan. Hajv va oliy himmatlilik, xokisorlik, insonparvarlik hislatlarini ulug‘lagan”. [3] Yana bir ilm ahllaridan biri Sayfiddin Axsikatiy u o‘z faoliyatida juda ko‘plab asarlarni tasnif qilgan. Jumladan, “tarix va uni anglashga oid kitoblarni xech bir qiyinchiliksiz bitgan. Quyidagi asarlarni yozib qoldirgan: “at - Tarix” (Tarix), “Zul- Manoqib” (Maqtovgaz sazovor xislatlar egasi) laqabini olgan. U alloma to‘g‘risida bizga Yoqut al Hamaviyning “Mu‘jam al-Buldon” va “Irshod ul-Aribila Ma‘rifat il-adib” asarlari orqali yetib kelgan”. [4]

Tarix dunyoqarashi insonning xulq-atvoriga bevosita ta‘sir qiladi: u ma‘lum toifalarda fikr yuritadi. O‘tmish zamonaviy inson faoliyatining asoslarini yaratdi.

Biroq, u bevosita idrok etilmaydi. Har bir inson faoliyati kelajakka qaratilgan bo‘lib, uni faqat oldindan ko‘rish mumkin. Bu odamga o‘z ishining ma‘nosini tushunish imkonini beradi. O‘tmish, hozirgi va kelajak inson ongida kesishadi.

Inson dunyoni kuzatadi va tushunadiki, odamlar undan oldin yashagan va vafotidan keyin ham yashashda davom etadi. Bu ustunlik qiladi: dunyoning mustaqil ravishda mavjudligi bilan kelishish qiyin xisoblanadi. Barcha rejalar ertangi kunga qaratilgan va ertaga odamni o‘limga yaqinlashtiradi. Teran fikrlaydigan odam, uning mavjudligining oxiri dunyoning oxiri degan taassurotga ega bo‘ladi. "Inson faoliyatining istiqbollari qanday?" - shaxs o‘ylaydi va harakat va uning oqibatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishga harakat qiladi. Tarixiy tafakkur shakllanmoqda, u sof insoniy faoliyat mahsuli bo‘lib, uning borligini ochib beradi. Tarixiy tafakkur orqali inson harakati o‘tmishga oid tarzda tizimlanadi va kelajak bashorat qilinadi. Aytish kerakki, maxsus falsafiy, tarixiy, sotsiologik adabiyotlarda tarixiy voqelik deganda real tarixiy (iqtisodiy, siyosiy, madaniy va hokazo) o‘tmish tushuniladi.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, jamiyatning yangi rivojlanish davrida yoshlarimizning tarixiy tafakkurini shakllantirishda madaniy va ma‘naviy meros

jumladan, milliy mafkuraning poydevori shakllantirishda Axsikentlik mutafakkirlarning asarlari eng muhim hisoblanadi. Demak, yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish orqali Vatanni sevis, umuminsoniy ahloqiy-ma’naviy qadriyatlarni singdirish, milliy o‘zligimizni anglatish, mehr-shavqatli, vijdonli qilib tarbiyalashdir. Mazkur mulohozalarimiz orqali o‘z o‘tmishi, ajdodlari bosib o‘tgan yo‘lni chuqur bilish va o‘zga xalqlar tarixi, ularning yutuq va xatolaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish har bir millatning taraqqiyotiga sabab bo‘ladigan omillardan biri sifatida talqin qilinganini anglash mumkindir.

Фойданилган адабиётлар рўйхати:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Т.:“O`zbekiston”, 2021. -Б.288.
2. Қозоқов.Т.Воҳидов А. Рўзинов Б. Буюкларга бешик бўлган Ахсикент ёхуд Фарғона алломалари. -Наманган.-Наврўз,2009.-Б.32-33
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.Том.4. –Т.: “Ўзбекистон”, 2002.-Б.350.
4. Маҳмудхўжа Бехбудий. “Туркистон тарихи” керак// Ойна.-1914.- №.38. – Б.900.